

THE NATURE AND PROBLEM OF USING PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL TECHNOLOGIES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION OF SECONDARY SCHOOL CHILDREN

Khoshimbayeva Muazzamkhon Mirzohid qizi

Tashkent Pharmaceutical Institute, Faculty of Pharmacy, student of vocational education

Annotation: The article describes how to increase the effectiveness of education of secondary school children with the help of pedagogical and psychological technologies. The introduction of new technologies in the educational process was considered.

Keywords: Education system, abilities, physiological and psychological development of the child, the interests of the child

O'RTA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING TA'LIM TARBIYASINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK –PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI VA MUAMMOLARI

Xoshimbayeva Muazzamxon Mirzohid qizi

Toshkent Farmatsevtika instituti Farmatsiya fakulteti Kasb ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Maqolada o'rta maktab yoshidagi bolalarning ta'lim- tarbiyasining samaradorligini pedagogik- psixologik texnologiyalar yordamida oshirishni yoritib beriladi . Ta'lim tarbiya jarayonlariga yangi texnologiyalarni joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan .

Kalit so'zlar. Talim tarbiya tizimi , qobiliyat ,bolaning fiziologik va psixologik rivojlanishi, bolaning qiziqishlari

Inson psixikasi doimo rivojlanishda. Bola insoniyat tarixi davomida jamg'argan tajribalarni o'zlashtirishi jarayonida rivojlanadi. Bu jarayon kattalar tomonidan doimiy nazorat, ya'ni ta'lim sharoitida amalga oshadi. Ta'lim bolaning psixik rivojlanishi jarayonini belgilashda keng rol o'ynaydi. Ta'lim tabiiy iste'dod, ijtimoiy muhit va u yoki

<https://conferencepublication.com>

bu yosh uchun samarali, tushunarli ta'lim usullariga asoslanadi. Bola o'sib rivojlanish jarayonida ko'plab davrlarni bosib o'tadi .

Shu davrlar orasida o'rta maktab yoshi bolada keng o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ladi

O'rta maktab yoshi- bolaning o'smirlik davriga to'g'ri keladi .

O'smirlik davri chegaralari taxminan 5-8-sinfga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi, lekin o'smirlik yoshiga o'tish 5-sinfga o'tish bilan mos tushmasligi va bir yil oldin yoki keyin sodir bo'lishi mumkin.

O'smirlik davrining alohida vaziyati uning nomlarida ifodalanadi: «o'tish», «keskin o'zgaruvchan», «mushkul», «tanqidiy». Ularda bu yoshda sodir bo'ladigan rivojlanish jarayonlarining murakkab va muhimligi qayd etilgan. Bu hayotning bir davridan boshqasiga o'tish bilan bog'liq. Inson rivojlanishining barcha yo'nalishlari bo'yicha (jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy) katta sifat va miqdoriy o'zgarishlar ro'y beradi.

O'smir shaxsi rivojlanishning muhim omili – uning shaxsiy faolligi – shaxsiyat, o'zini e'tirof etish va aniqlash jarayoni faol kechadi – biroq bu jarayon bir tekis emas. Bu jarayonlarni mo'tadillashtirish uchun esa pedagogik ta'lim tarbiya texnologiyalari zarur bo'ladi . Avvalo tarbiya texnologiyasiga nazar solsak, davr talabidan kelib chiqib, tarbiya texnologiyasida ham qo'yilgan aniq maqsadga muvofiq tarbiyaviy jarayonning samaradorligiga va shu asosida kutilayotgan natijaga e'tibor qaratiladi. Tarbiya texnologiyasida sodda , ammo sexrli so'zlar muhim ro'l o'ynaydi . Milliy g'oya mazmunidan kelib chiqib , tarbiya texnologiyasi bolaga to'g'ri yo'nalish bermog'i lozim . Shaxs kelajagini belgilashda komillik yo'li –bu ilm yo'lidir . Nodonlik , bilimsizlik , ma'rifatsizlik va johillik hamma davrlarda ham qoralangan.

O'smirlik yoshida muhim o'zgarishlar ro'y beradi, ular organizmning jismoniy o'sish va biologik voyaga etishi bilan bog'liqdir.

Organizm o'sishidagi sakrashlar, endokrin tizimdagi o'zgarishlar, gipofiz faoliyatidagi faollik, jinsiy voyaga etish, yurak, mushak, butun organizmning mustahkamlanishi insonning psixik, aqliy va ruhiy o'sishida muhim o'zgarishlarga olib keladi. Shunga qaramay, o'smirlik davridagi «tanglik»ni tushuntirishdagi nazariy fikrlar taraqqiyoti shunday umumlashmani yuzaga keltiradiki, unga ko'ra, o'smirlik davrining namoyon bo'lishi va o'tishi hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlar, o'smirning rivojlanishi, uning kattalar olamidagi mavqeiga bog'liq. Bola fiziologik va psixologik jihatdan rivojlangan bir davrda unga ta'lim va tarbiya berish birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi . Shu sababdan bola bilan bolalarcha ammo nazoratni qo'lga olgan holda shug'illanish kerak bo'ladi . Bu davrda bolani o'z holiga tashlab qo'yish eng noto'g'ri yo'l hisoblanadi . Bola tarbiyasida oila va yaqinlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bola bilan shug'illanish va uni qat'iy nazoratga olish talab etiladi . Bola bu yoshda endi o'zini bola emas, katta deb his qilish, katta bo'lishga harakat qilish o'smir shaxsiyatidagi markaziy va spesifik yangilik

hisoblanadi. Kattalik hissi deb ataluvchi xususiyatning o'ziga xosligi shundaki, o'smir o'zining bola ekanligini inkor etadi. Garchi atrofdagilar uni katta deb e'tirof qilishini istasa-da, o'smirda hali unda haqiqiy va to'laqonli kattalik hissi yo'q. Spesifik yangidan shakllanish sifatida kattalik hissi – shaxsning asosiy xususiyatidir. Chunki u o'smirning o'ziga, odamlar va dunyoga munosabatida yangi hayotiy nuqtai nazarni ifodalaydi, uning ijtimoiy faolligi, bir me'yor va qadriyatlardan boshqasiga – bolalarnikidan kattalarnikiga moslashishdan iborat spesifik yo'nalishni belgilaydi. O'smirning kattalarga o'xshashga urinishi tashqi tomondan ular kabi bo'lish, kattalar hayoti va faoliyatining ayrim taraflariga qo'shilishda kattalar xislatlari, malakalari, xulqlari, mavqelarini o'zlashtirishga harakat qilishida namoyon bo'ladi.

Kattalar bilan munosabatlarning yangi me'yorlari – o'smirning etik dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim asosdir. Agar kattalarning o'zlari tashabbus ko'rsatsa yoki o'smirning talablarini hisobga olib, unga nisbatan munosabatini o'zgartirsagina, yangi turdagi munosabatlarga o'tishning maqbul shakli yuzaga keladi.

O'smir uchun tengdoshlar bilan muloqot u mustaqil harakat qilgan o'zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor, deb o'ylaydi, o'z huquqlarini himoya qiladi va aynan shuning uchun ham kattalarning o'rinsiz, qo'pol aralashuvi xafagarchilik va norozilikka olib keladi.

O'smirda bir tomondan tengdoshlar bilan muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyatga intilish yaqqol namoyon bo'ladi. Jamoa hayoti bilan yashash, yaqin o'rtoqlar, do'stga ega bo'lish xohishi – do'stlar tomonidan qabul qilingan, tan olingan, hurmat qilingan bo'lishdek kuchli xohishdir. Bu muhim talabga aylanib boradi. Agar o'smirlarni to'g'ri shakllangan muhitga qo'ysak biz o'zimiz hohlagan maqsadga erishaolamiz. Lekin biz bu muhitni qanday tanlaymiz. Avvalo o'smir uchun ideal muhitni uning oilasi, yaqinlari shakllantirib berishadi.

Bilasizmi o'smir uchun eng yoqimsiz vaziyat nima ?

– jamoa va o'rtoqlarining noroziligi, muloqot qilishni istamaslik, eng og'ir jazo esa – ochiq yoki nooshkor aloqa uzish, gaplashmaslikdir. O'smirlar do'stlik kodeksining muhim me'yorlari – sha'nini hurmat qilish, tenglik, sodiqlik, do'stga yordam, to'g'ri so'zlik. Do'stlik me'yorlarini egallash bolaning o'smirlikdagi muhim yutug'idir.

Maktab va o'qish o'smir hayotida katta o'rin egallaydi. Lekin o'qishning muhim va zarurligini anglaganligiga qaramay turli bolalar bu masalaga har xil qaraydi. Ko'pchilik uchun maktabning qiziqarliligi tengdoshlar bilan keng muloqot qilish imkoniyati tufayli ortadi, lekin o'qishning o'ziga bundan ko'p zarar yetadi. O'smir uchun dars – faqat 45 daqiqalik o'quv emas, balki ko'plab muhim harakatlar, baholar, kechinmalar bilan boyigan sinfdoshlar va o'qituvchi bilan muloqot vaziyati hamdir.

O'rta maktabga o'tish bilan o'smirlarning o'qishi sezilarli darajada murakkablashadi: bitta o'qituvchi o'rniga besh–oltita yangisi paydo bo'ladi, ularning tushuntirish va so'rash usuli ham, o'quvchilarga talab va munosabati ham har xil. Buning ustiga o'qituvchilar ularni avvaliga yaxshi bilmaydilar, natijada «sevimli» va «sevimli bo'lmagan» o'qituvchilar paydo bo'ladi.

O'smirlar bilimdon va talabchan, lekin materialni qiziqarli va aniq tushuntirib beradigan, darsni bir me'yorda tashkil eta oladigan, unga jalb qila oladigan, darsni har bir o'quvchi uchun maksimal darajada unumli eta oladigan adolatli, oqko'ngil va madaniyatli o'qituvchilarni yoqtiradilar.

O'rta sinflarda o'quvchilar fanlar asosini o'rganish va o'zlashtirishga kirishadilar. Bolalar katta hajmdagi bilimlarni egallashi kerak bo'ladi. O'smirlik yoshining oxiriga kelib esa, ular o'zlarining bo'lg'usi kasbi va, umuman, kelajaklari haqida o'ylay boshlaydilar. Bu asosida ta'lim jarayonlarini takomillashtirish bolani kelajakdagi kasbini yaxshi mutaxassisi bo'lishiga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida o'rganish stixiyali bo'lishi, insonning boshqa odamlar, atrof-muhit bilan muloqot va o'zaro harakati natijasida yuzaga kelishi mumkin. Lekin, bilim va malakani tabiiy egallash bilan bir qatorda, o'rganish ko'p hollarda maqsadga yo'naltirilgan holda maxsus tashkil etilgan sharoitlarda amalga oshadi. Bunday maqsadga yo'naltirilgan o'rganishni tashkil etish – ta'lim deb ataladi. Uning eng keng tarqalgan turi – maktab ta'limi. Lekin ko'plab boshqa muassasalarda ham ta'lim beriladi, masalan, rasm chizish, musiqa, o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalari va boshqalarga bolalar bog'chasida o'rgatiladi. Ta'lim elementlari oilaviy tarbiyada kuzatiladi (jamiyatda o'zini to'g'ri tutish) va hokazo.

O'quv jarayonida bilim, malaka, ko'nikmalar passiv emas, balki o'qituvchi va o'quvchining faol ishtirokida beriladi. Ta'limni o'rganuvchi va o'rgatuvchi orasidagi o'zaro faol harakat jarayoni, deb tavsiflash mumkin, buning natijasida o'rganuvchida ma'lum bir bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanadi. Bu jarayonni boshqarib, sifatli qilish, natijada eng samarali darajaga erishish pedagogika fanining (nazariya, metodika va amaliyot) asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim muammolarini to'g'ri hal etish, o'qish ma'lum darajada majburiy xususiyatga egaligi va asosiy maqsad yo'lida engib o'tish kerak bo'lgan to'siq sifatida namoyon bo'lishi bilan ham bog'liq. Bu vaziyat uchun qarshi kurashuvchi kuchlarning mavjudligi xosdir. Umuman olganda, bu ziddiyatli holat hisoblanadi, shuning uchun u katta psixik zo'riqish bilan bog'liq ichki kuchni hamda individning o'z-o'zi bilan kurashishini talab qiladi. Ziddiyat keskin bo'lganda «vaziyatdan chiqish» tendensiyasi (inkor, qiyinchilikni chetlab o'tish, nevroz) yuzaga keladi. Unda o'quvchi o'qishni

<https://conferencepublication.com>

tashlaydi yoki «o'zini tutolmay qoladi» – qoidalarini buzadi, loqaydlikka tushadi. SHunga o'xshash holat maktab amaliyotida ko'p uchraydi.

Ta'limdagi muvaffaqiyatli vaziyat - insonni o'qishga undovchi vaziyatdir. Bunga fanlarga qiziqish, qiziquvchanlik, madaniy darajani oshirishga intilish misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday motivli vaziyatlar ichki ziddiyatlarga ega bo'lmaydi. Albatta, ular, shuningdek, o'qish davomida uchrovchi qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq va iroda kuchini talab qiladi. Lekin bu kuchlar o'z-o'zi bilan kurashga emas, tashqi to'siqlarni yengishga yo'naltirilgan. Bunday vaziyatlar pedagogika nuqtai nazaridan optimaldir. Ularni yaratish pedagogikaning muhim vazifasidir. Ular o'quvchining xulqini boshqarishni emas, balki uni tarbiyalashni, uning maqsad, qiziqish va idealini shakllantirishni talab qiladi.

O'quv faoliyati motivlari:

1. Ichki manbalar bilan bog'langan (tug'ma, erishilgan ehtiyojlar).
2. Tashqi manbalar bilan bog'langan (hayotning ijtimoiy shart-sharoitlari).
3. SHaxsiy manbalar bilan bog'langan (qiziqishlar, intilishlar va boshqalar).

Ta'lim tuzilishi:

1. Tashqaridan berilgan axborotni passiv qabul qilish va o'zlashtirish.
2. Faol tarzda axborotni mustaqil izlash, aniqlash va undan foydalanish.
3. Tashqi tomondan shakllantirilgan axborotni yo'naltirilgan holda izlash, aniqlash va undan foydalanish.

O'qish va ta'lim harakatlari turlari:

1. Taqlid qilish, so'zma-so'z yoki mantiqan qabul qilish va takrorlash, tayyor namuna va qoidalar bo'yicha mashq qilish.
2. Savol va vazifalar tanlovi, axborot va umumiy tamoyillar qidiruvi, «ixtiyor» va fahmlash, ijodiy faoliyat.
3. Qo'yilgan vazifalarni hal etish va natijalarni baholash, sinov va xatolar, tajribadan o'tkazish, tushunchalarni tanlash va qo'llash hamda boshqalar.

Mazkur ta'lim turlarining har biri o'quvchi faoliyatini boshqarishda o'z usullari, ta'lim konsepsiyasi va metodlariga ega. SHunday qilib, birinchi tur - (tayyor bilim va malakalarni berish)da – ta'lim konsepsiyasi o'qitish sifatida namoyon bo'ladi. Uning uchun quyidagi: xabar qilish, tushuntirish, berish, ko'rsatish metodlari xos. Ikkinchi tur (tabiiy mustaqil o'rganish)da – ta'lim konsepsiyasi rag'batlantirish sifatida aks etadi. Unga xos metodlar: qiziqish, hayrat, qiziquvchanlik uyg'otish. Uchinchi tur (ongli faol yo'nalishi)da – ta'lim konsepsiyasi rahbarlik sifatida ifodalanadi. Unga xos metodlar: muammo va masalalarni qo'yish, muhokama va munozara, hamkorlikda rejalashtirish va boshqalar.

Shu o'rinda yana bir jixatni eslatib o'tishni joiz deb bilaman ,o'rta maktab yoshidagi bolaning ta'lim –tarbiya jarayonining takomillashishi yoki uning susayishi bu bolaning yaqinlari va oilasiga ko'p jihatdan bog'liq .Shunday ekan o'smir bolalarni har doim o'zoimizga do'st tutib ularni psixologik jarayonlarini yaxshilashga harakat qilishimiz zarur .Bola hatto qilsa "Hatokorsan" deb emas balki buni hatto ekanini yaxshi gap bilan uqtirishimiz kerak .Hech qachon yomon gap bilan boladan yaxshi natija kutib bo'lmaydi.Bolani qanchalik to'g'ri tarbiyalasak ,u bizga biz hohlagan natijani beradi.Biz har doim o'qib izlanib,harakatda bo'lsak farzandlarimiz ham bizga o'xshab ilm-u tarbiyaga oshno bo'ladi.Buyuk yurt kelajagi biz aziz yoshlar qo'lida ekan ,ta'lim va tarbiya olishdan hech ham tolmagaymiz

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Petrushin V.I. Muzo'kal'naya psixologiya. M., 1997.
2. G'oziev E.G'. Psixologiya (YOsh davrlari psixologiyasi). T., 1994.
3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: darslik. I, II kitob. T., 2002.
4. Kruteskiy V.A. Psixologiya obucheniya i vospitaniya shkol'nikov. M., 1976.